

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№8

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
262 sahifa, avgust, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi.....	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	
Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....	33
Karimov Mustafu Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	42
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.	47
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
O'zbekiston telekommunikatsiya sohasida raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish: "O'zbektelekom" ak misolida	56
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari amaliyotida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yo'nalishlari.....	59
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	66
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Norasmiy bandlikning yashirin iqtisodiyot shakllanishi va dinamikasiga ta'sirining nazariy va amaliy jihatlar	72
Xasanov Jaxongir Jamshidovich, Sharifxo'jayev Shavkat Oqilovich	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi	80
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан	87
Гольшева Елена Вячеславовна; Додиев Феруз	
O'zbekistonda sug'urta bozori holati va o'sish sur'ati	96
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Davlat xaridlarida narxning eng yuqori chegarasi: huquqiy mexanizm va amaliy ahamiyati	101
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
O'zbekiston respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining legallashtirishini boshqarishni istiqbolli ko'rsatkichlari	105
Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li	
Разработка инновационных инструментов и механизмов стратегического управления проектами.....	110
Мансурова Севара Мансуровна	
Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning metodologik asoslari: nazariy va amaliy jihatlar	114
Haqberdiyev Bekzod O'ktamovich	
Учёт и аудит обязательств на предприятиях: анализ зарубежного опыта и практики	120
Халыкназарова Гулназ Жалгасбай кызы	
Theoretical Basis for Ensuring a Cotton Layer on a Conveyor Belt	126
G'.R.Rakhmatov	



Korxonalarning moliyaviy barqarorligini boshqarish	132
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
Targetlangan iqtisodiy siyosat orqali kambag'allikka qarshi kurash.....	138
Baratov J.N.	
Jismoniy shaxslarning daromadlariga deklaratsiya asosida soliq solish mexanzmini takomillashtirish	144
Ibragimov Zafar Ismailovich	
Bekobod sement zavodida ishlab chiqarish jarayonlarida og'ir mehnat omillarini avtomatlashtirish orqali xavfni kamaytirish	152
Ishchanov Atabay Reyimberdiyevich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	159
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Практические подходы к выявлению и оценке налоговых рисков на основе сегментации деятельности налогоплательщиков	164
Голубова Ольга Сергеевна, Элбаева Мукаддас Рашидовна	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish	170
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
O'zbekistonda innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar.....	176
Anasxon Yunusov A'zamjon o'g'li	
Применение метода анализа иерархий для выбора оптимальной экспортной стратегии: на примере Узбекских предприятий, экспортирующих товары в россию.....	180
Муниса Мирзалиевна Турдибаева	
Processing of Sulfide Copper Ores With Copper and Silver Recovery.	185
Mamaisakova Zebo Bahodir qizi	
Korxonalar eksport salohiyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	189
Naimxonov Ma'rufxon Zokirxon Og'li	
Corporate Governance Reforms and Financial Performance Dynamics: Evidence From State-Owned Banks in Uzbekistan	194
Yusufjon Pulatov, Bakhtiyor Islamov	
Tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmining uslubiy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari	200
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Восстановление геологических сигналов с использованием кубических базисных сплайнов.....	204
Гофуржонов Мухаммадали, Гофуржонова Маржона	
Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning amaliy jihatlari	210
Madaminov Bekzod Allayarovich	
Aholi moliyaviy savodxonligini moliyaviy siyosat instrumentlari orqali oshirish imkoniyatlari	215
Irgashev Anvar Farxodovich	
Yashil moliyalashtirishda moliyaviy instrumentlar.....	220
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
Sanoatni rivojlanish tendensiyalari va o'ziga xos xususiyatlari (Xorazm viloyati misolida).....	224
Salayev Jasurbek Komilovich	
Tijorat banklari raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirish bo'yicha xorij tajribasi va uni O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida qo'llanilishi.....	230
Shamsiyev Nurbek Fazliddin o'g'li	
Mamlakatda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish dastaklari	237
Raxmonov Lochin To'xtamishovich	
Theoretical principles of cluster formation in metallurgical industry enterprises.....	243
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Трансграничные денежные переводы в Республику Узбекистан и благосостояние граждан	250
Садыков Азиз Миршапович	



Tashkilot boshqaruv samardorligini oshirishning xorij tajribasi	254
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	



TASHKILOT BOSHQARUV SAMARDORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI

Usmonov Adxamjon A'zamjonovich

"International school of finance technology and science" instituti Menejment kafedrası mudiri, PhD

E-mail: adhamusmonov@gmail.com

ORCID: 0009-0004-7213-9754

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tashkilot boshqaruv samaradorligini oshirish omillari tahlil etiladi. Tadqiqotda AQSh, Yevropa davlatlari va Osiyo mamlakatlarida qo'llanilayotgan boshqaruv tizimlari, innovatsion yondashuvlar hamda zamonaviy menejment uslublari yoritilgan. Shuningdek, korporativ boshqaruv, inson resurslarini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va samaradorlikni baholash mexanizmlarining afzalliklari ko'rib chiqiladi. Maqola yakunida xorijiy tajribani O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari va istiqbollari bo'yicha xulosalar hamda amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Tashkilot boshqaruvi, samaradorlik, xorij tajribasi, innovatsion menejment, korporativ boshqaruv, inson resurslari, raqamli texnologiyalar, KPI.

Abstract: This article analyzes the factors for improving organizational management efficiency based on the experience of foreign countries. It examines management systems applied in the United States, European countries, and Asian nations, as well as innovative approaches and modern management practices. Special attention is given to corporate governance, human resource development, the implementation of digital technologies, and the advantages of performance evaluation mechanisms. In conclusion, the article provides findings and practical recommendations on the applicability and prospects of adopting foreign experience in the context of Uzbekistan.

Keywords: Organizational management, efficiency, foreign experience, innovative management, corporate governance, human resources, digital technologies, KPI.

Аннотация: В данной статье анализируются факторы повышения эффективности управления организацией на основе опыта зарубежных стран. Рассматриваются управленческие системы, применяемые в США, странах Европы и Азии, инновационные подходы и современные методы менеджмента. Особое внимание уделено вопросам корпоративного управления, развития человеческих ресурсов, внедрения цифровых технологий и преимуществ механизмов оценки эффективности. В заключительной части статьи представлены выводы и практические рекомендации по применению зарубежного опыта в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: Управление организацией, эффективность, зарубежный опыт, инновационный менеджмент, корпоративное управление, человеческие ресурсы, цифровые технологии, KPI.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirish masalasi dolzarb bo'lib, nafaqat iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri, balki raqobatbardosh ustunlikni ta'minlashning ham muhim yo'nalishi hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, boshqaruv samaradorligi faqat ichki resurslardan foydalanish bilan chegaralanmay, balki tashqi omillarga — bozor kon'yunkturasiga, davlat siyosatiga, iste'molchilar ehtiyojlariga moslashish orqali ham ta'minlanadi. Shu bois dunyo miqyosida korxonalar va muassasalar boshqaruv tizimlarini qayta ko'rib chiqib, innovatsion yondashuvlar, raqamli transformatsiya va inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.



So'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarda — AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Osiyo iqtisodiyoti ilg'or mamlakatlarida — korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish, samarali motivatsiya tizimlari orqali inson resurslaridan foydalanish, natijadorlikka asoslangan boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish keng amaliyotga aylangan. Ayniqsa, KPI (Key Performance Indicators), sifat menejmenti, "lean management" va boshqa zamonaviy konsepsiyalar tashkilotlarning yuqori samaradorlikka erishishida asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham ushbu yondashuvlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, bozor munosabatlarining kengayishi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivojlanishi xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etishni talab qilmoqda. Xususan, Prezident Sh.M. Mirziyoyev o'z nutqlarida ko'p bora boshqaruv tizimlarini takomillashtirish, xalqaro standartlarga asoslangan yondashuvlarni joriy etish zarurligini alohida ta'kidlab kelmoqda. Bu esa tashkilot boshqaruvi samaradorligini oshirishda xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish muhim metodologik va amaliy vazifa ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish orqali O'zbekiston tashkilotlari uchun samarali boshqaruv modellarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish imkoniyati kengayadi. Shu tariqa, milliy boshqaruv tizimlari global iqtisodiyot talablariga moslashib, tashkilotlarning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniga ega bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tashkilot boshqaruv samaradorligini oshirish masalasi xalqaro miqyosda keng o'rganilgan bo'lib, turli mamlakatlarda yaratilgan nazariy konsepsiyalar va amaliy tajribalar ushbu sohada muhim metodologik manba hisoblanadi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar boshqaruv samaradorligining asosiy mezonlari, uni ta'minlovchi omillar va zamonaviy boshqaruv yondashuvlari borasida qator ilmiy qarashlarni ilgari surishgan.

Amerikalik iqtisodchi P. Drucker boshqaruv samaradorligini oshirishda "maqsadlar orqali boshqaruv" konsepsiyasini ilgari surib, tashkilot faoliyatini aniq vazifalar va natijalarga yo'naltirish zarurligini ta'kidlagan. Unga ko'ra, samarali menejment inson resurslaridan oqilona foydalanish va ularning salohiyatini to'liq ochib berish orqali ta'minlanadi. Shuningdek, M. Porterning raqobat ustunliklari haqidagi qarashlari boshqaruv samaradorligini oshirishda strategik pozitsiyalash va tashqi muhit omillariga moslashuvchanlikning muhimligini ko'rsatadi.

Evropa olimlari, xususan, G. Hofstede o'zining madaniyatlararo boshqaruv tadqiqotlarida tashkilotlar samaradorligiga milliy madaniyat, qadriyatlar va ijtimoiy institutlarning ta'sirini asoslab bergan. Unga ko'ra, boshqaruv samaradorligi nafaqat ichki jarayonlarga, balki tashqi muhit va madaniy muvofiqlikka ham bog'liqdir. Yapon tadqiqotchilari esa "Kaizen" va "Lean management" yondashuvlari orqali sifatni doimiy ravishda takomillashtirish, xarajatlarni kamaytirish va inson resurslarini jarayonlarga faol jalb etish orqali samaradorlikka erishish mumkinligini ta'kidlashadi.

So'nggi yillarda boshqaruv samaradorligini raqamli transformatsiya bilan bog'laydigan ilmiy izlanishlar ko'paymoqda. Xususan, J. Westerman va boshqalar o'z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat mahsulot va xizmat sifatini oshirish, balki tashkilotning tashqi muhitga tezkor moslashuvchanligini ta'minlashini ko'rsatadi. Shuningdek, KPI, Balanced Scorecard va boshqa natijadorlikni baholash uslublari zamonaviy menejmentda keng qo'llanilayotganini ilmiy maqolalarda ko'rish mumkin.

Mahalliy olimlar ham boshqaruv samaradorligini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Jumladan, Vahobov A.V. va Egamov A.A. o'z tadqiqotlarida O'zbekiston korxonalarida menejment tizimini takomillashtirish uchun inson kapitalini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ta'kidlagan. Tursunov B.O.ning ishlari esa korxonalar samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, sifat menejmenti va innovatsion yondashuvlarni ham hisobga olish kerakligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Murodova N. va Xolmatova S. tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda korporativ boshqaruv tamoyillari, xususan, shaffoflik, hisobdorlik va mas'uliyatlilik prinsiplari tashkilot samaradorligini oshirishda muhim omil ekani asoslangan. O'zbekiston sharoitida ushbu tamoyillarni xalqaro standartlarga moslashtirish boshqaruv tizimining samaradorligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot xorijiy tajribalar asosida tashkilot boshqaruv samaradorligini oshirish omillarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, dialektik usul asosida boshqaruv samaradorligining dinamik jarayon sifatida shakllanishi va rivojlanishi o'rganildi. Qiyosiy tahlil yordamida AQSh, Yevropa va Osiyo davlatlari boshqaruv tizimlari solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlarini ajratib ko'rsatildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Dunyo bo'ylab ilg'or tajribalarni kuzatsak, ko'plab mamlakatlarda korxonalar va muassasalar boshqaruvni zamonaviy tamoyillarga asoslab, aniq strategiyalar hamda innovatsion yondashuvlar orqali o'z faoliyatini takomillashtirmoqda. Xususan, inson resurslarini boshqarish, samarali motivatsiya tizimlarini joriy etish, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va sifat menejmenti tamoyillarini tatbiq etish xorij tashkilotlarida yuqori natija berayotganini ko'rish mumkin.

Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, tashkilot samaradorligini oshirish faqat ichki boshqaruv mexanizmlariga bog'liq emas, balki tashqi muhit, ya'ni bozor talablari, iste'molchilar ehtiyojlari va davlat siyosatiga ham moslashishni talab qiladi. Shu sababli xorijda korxonalar ko'proq moslashuvchan boshqaruv modelidan foydalanib, o'z faoliyatida tezkor qarorlar qabul qilishga intilmoqda.

Xorijiy tajriba, bir tomondan, tashkilotlarga boshqaruvning zamonaviy tamoyillarini o'rganish va joriy etish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, ularning global iqtisodiyotga integratsiyalashuvi va xalqaro bozorda o'z o'rnini mustahkamlashiga zamin yaratadi. Bu jarayonda xalqaro tajriba maktabi sifatida xizmat qiluvchi yondashuvlar — strategik rejalashtirish, natijadorlikka asoslangan boshqaruv, inson kapitalini rivojlantirish, raqamli transformatsiya va innovatsion menejment — O'zbekiston tashkilotlari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Xorijiy tajribani tadqiq etishda, eng avvalo, AQSH tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki ushbu mamlakat zamonaviy boshqaruv nazariyasi va amaliyotining ko'plab konsepsiyalari yaratilgan hamda muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazilgan davlat hisoblanadi. AQSH tashkilotlarida samaradorlikni oshirish uchun aniq maqsadlarga yo'naltirilgan strategik rejalashtirish, inson resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar, shuningdek, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash ustuvor o'rin tutadi. Bundan tashqari, xususiy sektor va davlat tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, faoliyatni natijadorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholash, xodimlarni motivatsiya qilishning turli usullarini joriy etish ham AQSH tajribasining asosiy xususiyatlari sirasiga kiradi. Shu sababli ushbu mamlakatning boshqaruv sohasidagi yondashuvlarini o'rganish, boshqa davlatlar, jumladan, O'zbekiston sharoitida ham samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

AQShda samaradorlikka erishish uchun avvalo strategik rejalashtirish (BSC, GPRA), xodimlar boshqaruvi (360° baholash) va innovatsion yondashuvlar (Change Management) asosida natijadorlik monitoringi yo'lga qo'yiladi. Bu monitoring jarayonlar asosida sifatni oshirish tizimlari (TQM, Six Sigma) bilan integratsiyalanadi va natijada tashkilotning umumiy boshqaruv samaradorligi ta'minlanadi. Modelda har bir bosqich bir-biriga bog'liq holda (izchil ishlaydi, bu esa samarali boshqaruvga erishishning muhim omili hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. AQShda boshqaruv samaradorligini oshirish modeli¹

AQShda federal hukumat miqyosida tashkilotlar faoliyatining samaradorligini oshirish va natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruvni joriy etishga qaratilgan muhim qonunchilik hujjati — GPRA (Government Performance and Results Act) 1993-yilda qabul qilingan va 2010-yilda yangilangan[1]. GPRA asosida har bir agentlik strategik reja, yillik ish rejasi va natijaviy hisobotlar tayyorlaydi. Ushbu yondashuv budget mablag'laridan oqilona foydalanish, faoliyat samaradorligini baholash va jamoatchilikka ochiqlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, Performance.gov platformasi orqali barcha hisobotlar e'lon qilinadi va monitoring qilinadi[2]. Bu qonun AQShda boshqaruv samaradorligi madaniyatini shakllantirishda asosiy rol o'ynagan.

1 Muallif tomonidan ishlangan.



GPRA singari yondashuvlar bilan uyg'un holda, Balanced Scorecard (BSC) AQShda boshqaruv tizimini tizimli va natijaga yo'naltirilgan tarzda shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. BSC haqida bundan oldingi bobda batafsil so'z yuritilganligi uchun ko'p to'xtalmaymiz. Bu strategik rejalashtirish va tashkilot faoliyatini samarali monitoring qilishda keng qo'llaniladigan tizimdir. Ushbu model tashkilotning faoliyatini faqat moliyaviy ko'rsatkichlar bilan emas, balki mijozlar qadriyati, ichki ish jarayonlari, o'sish va innovatsiyalar kabi muhim yo'nalishlar orqali baholash imkonini beradi. BSC tashkilot strategiyasini aniq mezonlar asosida operativ harakatlarga aylantiradi, xodimlarning maqsadlarga yo'naltirilganligini kuchaytiradi va samaradorlikni oshiradi[3].

AQSHda boshqaruv samaradorligini oshirishda natijadorlikka asoslangan boshqaruv (Performance-Based Management) tamoyili ustuvor o'rin tutadi. Federal agentliklar va mahalliy boshqaruv organlari o'z faoliyatini KPI (Key Performance Indicators) orqali baholaydi. Bu ko'rsatkichlar byudjet taqsimoti, xizmat ko'rsatish sifati va xodimlar samaradorligini aniqlashda asosiy mezon sifatida qo'llaniladi. AQSH Davlat xizmatchilari boshqarmasi (OPM) tomonidan ishlab chiqilgan "A Handbook for Measuring Employee Performance" qo'llanmasida bu tizimning asosiy tamoyillari batafsil bayon etilgan[4].

Bundan tashqari, AQSHda raqamli transformatsiya boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Davlat va xususiy sektor tashkilotlari raqamli platformalar orqali xizmat ko'rsatish, ma'lumotlar almashinuvi va monitoring tizimlarini takomillashtirgan. Bu esa tezkorlik, shaffoflik va fuqarolar bilan samarali muloqotni ta'minlaydi. Masalan, mahalliy hokimiyatlar faoliyati KPI asosida baholanadi, bu esa ularning natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

AQSHda inson kapitaliga sarmoya kiritish ham boshqaruv samaradorligini oshirishda ustuvor yo'nalishlardan biridir. Xodimlarning kompetensiyasini baholashda 360 darajali baholash, kompetensiyalarga asoslangan yondashuvlar va liderlik salohiyatini aniqlash tizimlari keng qo'llaniladi. Bu yondashuvlar rahbar kadrlarning salohiyatini aniqlash, rivojlantirish va strategik lavozimlarga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

AQSHda boshqaruv samaradorligini oshirishda nafaqat innovatsion metodologiyalar, balki sifatni boshqarish tizimlari ham muhim rol o'ynaydi. Xususan, Total Quality Management (TQM) va Zero Defects (ZD) kabi yondashuvlar Amerika kompaniyalarida keng qo'llanilgan va natijada ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida sezilarli yutuqlarga erishilgan.

TQM falsafasi sifatni faqat yakuniy mahsulotni tekshirish bilan cheklanmay, balki butun tashkilot jarayonlari davomida nazorat qilishni nazarda tutadi. Bu yondashuv mijozlar ehtiyojlarini qondirishga, xodimlarning barcha darajadagi ishtirokini ta'minlashga, jarayonlarni doimiy takomillashtirishga va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishga qaratilgan[5]. AQSH kompaniyalari, ayniqsa 1980-yillardan keyin, Yaponiya sanoatining muvaffaqiyatidan ilhomlanib, TQM tamoyillarini o'z faoliyatlariga joriy etgan. Bu esa ularga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini bergan. TQM tizimi xodimlarning malakasini oshirish, ichki jarayonlarni optimallashtirish va mijoz ehtiyojlariga mos xizmatlar ko'rsatish orqali umumiy tashkiliy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi[6].

Bugungi kunda ham TQM tamoyillari, ayniqsa, raqamlashtirish va sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Zamonaviy TQM yondashuvlari ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, prognozli tahlil va avtomatlashtirish orqali nuqsonlarni oldini olishga katta e'tibor qaratmoqda, bu esa tashkilotlarning samaradorligini yanada oshiradi[7].

Boshqa tomondan, Zero Defects (ZD) modeli xatolarning oldini olishga qaratilgan bo'lib, u falsafa sifatida har bir ishni birinchi martada to'g'ri bajarishga undaydi. Philip B. Crosby tomonidan ishlab chiqilgan bu konsepsiya AQSH mudofaa sanoatida, xususan, Martin kompaniyasida keng qo'llanilgan va katta muvaffaqiyatlarga erishilgan[8]. ZD modelida har bir xodim o'z ish joyida aniqlangan kamchiliklarni hujjatlashtiradi va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar beradi. Bu tizimda sifatga erishish faqat nazoratchilarning vazifasi emas, balki har bir xodimning shaxsiy mas'uliyati hisoblanadi. ZD yondashuvi yordamida tashkilotlar ortiqcha xarajatlarni (qayta ishlash, brak va kafolat xarajatlari) kamaytirishga, mijozlar ishonchini oshirishga va ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada yaxshilashga muvaffaq bo'ladi[9].

So'nggi yillarda, Zero Defect Manufacturing (ZDM) konsepsiyasi sanoat 4.0 texnologiyalari, jumladan, SI, Machine Learning (ML) va katta ma'lumotlar tahlili bilan birgalikda rivojlanmoqda. Bu yondashuv mahsulot va jarayon darajasida nuqsonlarni aqlli tarzda bashorat qilish va oldini olishga qaratilgan bo'lib, ishlab chiqarishning avtonomligini oshiradi va nuqsonlarni minimallashtirish hisobiga nol holatiga keltirishga intiladi[10].

Odatda AQSH kompaniyalarida TQM va Six Sigma yondashuvlari bir-birini to'ldiruvchi va mustahkamlovchi metodologiyalar sifatida ko'riladi. Six Sigma maqsadga erishish uchun aniq statistik tahlil va jarayonlarni optimallashtirish usullarini taklif etadi. Agar TQM ko'proq falsafiy va tashkiliy yondashuv bo'lsa, Six Sigma DMAIC modeli orqali har bir jarayonda o'lchash, tahlil qilish, takomillashtirish va nazorat qilish bosqichlarini qat'iy bajarishni talab qiladi[11]. Shu sababli ko'plab ilg'or kompaniyalar, masalan, General Electric, Motorola, TQM tamoyillarini tashkilot madaniyatiga joriy qilgan holda, sifatni o'lchash va natijaga erishishda Six Sigma

asosiy vosita sifatida qo'llaydilar[12]. Bu ikki yondashuv uyg'unligi tashkilotlarga nafaqat xatoliklarni kamaytirish, balki mijoz qoniqishini va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Germaniya boshqaruv tizimi o'zining yuqori darajadagi tartib-intizomi, tizimlilik va funksional samaradorligi bilan dunyoda ajralib turganligi sababli bu boradagi ilg'or tajribasini tadqiq qilish maqsadga muvofiq. Ushbu mamlakatda boshqaruv samaradorligi, birinchi navbatda, kuchli institutsional tuzilmalar, me'yoriy-huquqiy aniqlik, va professional kadrlar siyosatiga asoslanadi. Germaniyada tashkilotlarni boshqarishda "Verwaltungsmodernisierung" (boshqaruvni modernizatsiya qilish) yondashuvi 1990-yillardan boshlab keng joriy etila boshlangan. Bu yondashuvning asosiy maqsadi davlat sektorida xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish hamda mijozga yo'naltirilgan boshqaruv madaniyatini shakllantirishdan iborat[13] (1-jadval).

Germaniya tajribasida boshqaruv samaradorligining muhim komponentlaridan biri "New Steering Model" (NSM) hisoblanadi. Bu model orqali mahalliy davlat organlari va munitsipalitetlar o'z faoliyatini moliyaviy avtonomiya, natijadorlikni o'lchash va resurslardan oqilona foydalanish asosida yuritmoqda. NSM g'oyasi buyicha, har bir davlat organi o'zining aniq maqsad va vazifalarini belgilar ekan, ularga erishish yo'lida indikatorlar orqali baholanishi kerak. Bu esa faqat byurokratik ijrodan iborat bo'lgan eski tizim o'rniga, natijadorlikka asoslangan boshqaruv tamoyillarini joriy etishni taqozo etadi[14].

1-jadval. Germaniya boshqaruv samaradorligi tizimining asosiy komponentlari²

T/r	Tarkibiy element	Qisqacha tavsifi
1.	Verwaltungsmodernisierung	Boshqaruvni modernizatsiya qilish — davlat boshqaruvini raqobatbardosh, moslashuvchan va natijaga yo'naltirilgan qilish islohoti.
2.	New Steering Model (NSM)	Natijadorlikka asoslangan boshqaruv modeli. Mahalliy hokimiyat organlarida moliyaviy avtonomiya, strategik rejalashtirish va baholash tizimi.
3.	Kontrolling tizimi	Strategik va operativ boshqaruvni nazorat qiluvchi monitoring tizimi. Moliyaviy, insoniy va xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlarini tahlil qiladi.
4.	Ijtimoiy sheriklik (Co-production)	Fuqarolar va NNTlarning qaror qabul qilish, xizmatlarni rejalashtirish va baholashdagi faol ishtiroki.
5.	Sifat menejmenti tizimlari (ISO 9001)	Xizmat va jarayonlarda barqarorlik, standartlashtirish va uzluksiz takomillashtirishni ta'minlovchi xalqaro sifat standartlari.
6.	Boshqaruv samaradorligi (yakuniy natija)	Yuqoridagi elementlar orqali tashkilotning umumiy natijadorligi, mijoz qoniqishi, resurslardan samarali foydalanish va strategik barqarorlikka erishiladi.

Germaniyada boshqaruv samaradorligini oshirishda "kontrolling" tizimi muhim o'rin tutadi. Bu tizim orqali tashkilotlar o'z strategik va operativ maqsadlariga qanday erishayotganini muntazam tahlil qilib boradi. Kontrolling nafaqat moliyaviy hisobotlar, balki inson resurslari, xizmat ko'rsatish sifati va jarayon samaradorligi kabi ko'rsatkichlarni ham o'z ichiga oladi. U faoliyat natijalarini tezkor tahlil qilishga imkon beradi va strategik qaror qabul qilish jarayonini ma'lumotlarga asoslaydi. Ayniqsa bu tizim COVID-19 pandemiyasi davrida real vaqtli monitoring va moliyaviy hamda ijtimoiy indikatsiyalar asosida tezkor responsiv boshqaruvni ta'minladi[15].

Yaponiya boshqaruv tizimi samaradorlikni oshirishda o'ziga xos yondashuvlari bilan ajralib turadi. Bu model inson kapitaliga e'tibor, jamoaviylik tamoyili, umrbod bandlik tizimi, ichki motivatsiya va uzluksiz takomillashtirish (Kaizen) falsafasiga asoslanadi. Tashkilotlar faoliyatida har bir xodimning ishtiroki, mas'uliyati va sadoqati yuqori darajada qadrlanadi. Bu esa nafaqat ichki jarayonlarning barqarorligini ta'minlaydi, balki tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvchanlikni kuchaytiradi.

Yapon menejmenti modelining markazida "kompaniya oilasi" konsepsiyasi turadi. Bu yondashuvda xodimlar kompaniya manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yadi. Umrbod ishga yollash tizimi orqali xodimlar o'z lavozimida uzoq muddat ishlaydi, bu esa tajriba, sadoqat va korporativ madaniyatning shakllanishiga xizmat qiladi. Mehnatga haq to'lash tizimi ham bu modelga mos ravishda tuzilgan bo'lib, daromadlar xodimning kompaniyadagi staji va hissasiga qarab belgilanadi. Bu tizim xodimlar o'rtasida raqobat emas, balki hamkorlik va jamoaviylik ruhini mustahkamlaydi.

2 Muallif tomonidan ishlangan



Yaponiyada boshqaruv samaradorligini oshirishda inson resurslarini strategik boshqarish muhim o'rin tutadi. Rekrutning jarayoni faqat texnik ko'nikmalarga emas, balki axloqiy qadriyatlar va jamoaviylikka asoslanadi. Yangi xodimlar kompaniya ichida qayta tayyorlanadi, bu esa ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish imkonini beradi. Kompaniyalar o'z falsafasini avloddan avlodga o'tkazadi, bu esa menejmentning barqarorligini ta'minlaydi.

Yapon menejmentida "Kayzen" strategiyasi — ya'ni uzluksiz takomillashtirish — har bir xodimning kundalik faoliyatida qo'llaniladi. Bu yondashuv orqali ishlab chiqarish jarayonlari, xizmat ko'rsatish sifati va ichki operatsiyalar muntazam ravishda baholanadi va takomillashtiriladi. Har bir xodim o'z ish joyida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash, tahlil qilish va yechim taklif qilishda faol ishtirok etadi. Bu esa tashkilotning innovatsion salohiyatini oshiradi va raqobatbardoshligini mustahkamlaydi[16].

Yaponiya boshqaruv modelining yana bir muhim jihati — jamoaviy qaror qabul qilish madaniyati. Rahbarlar xodimlarning fikrini tinglaydi, muhim strategik qarorlar jamoaviy muhokama asosida shakllanadi. Bu yondashuv xodimlarning motivatsiyasini oshiradi, ularni tashkilot maqsadlariga jalb etadi va ichki muvozanatni ta'minlaydi. Boshqaruv strukturalari esa loyihaviy yondashuvga asoslanib, har bir bo'lim avtonom tarzda faoliyat yuritadi, bu esa tezkorlik va moslashuvchanlikni kuchaytiradi[17].

O'zbekistonda tashkilot boshqaruvini yanada samarali va zamonaviy darajaga olib chiqish uchun quyidagi yo'nalishlar bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, texnologik modernizatsiya tashkilotlar faoliyatining raqamli transformatsiyasini ta'minlaydi. Bu jarayon avvalo asosiy biznes jarayonlarini avtomatlashtirishdan boshlanadi. Korxona resurslarini rejalashtirish tizimi – ERP orqali moliyaviy hisobotlar, resurslar boshqaruvi va ishlab chiqarish jarayonlari yagona platformada integratsiyalanadi, bu esa qaror qabul qilishni tezlashtiradi va xatoliklarni kamaytiradi. Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimi – CRM esa mijozlar bilan aloqalarni tizimli ravishda boshqarish, ularning ehtiyojlarini aniqlash va xizmat sifatini oshirish imkonini beradi. Keyingi bosqichda sun'iy intellekt (SI) va katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili texnologiyalarini joriy etish orqali prognozlash, tavakkalchilikni baholash va strategik rejalashtirishda ilg'or yondashuvlar qo'llaniladi.

Ikkinchidan, boshqaruv metodologiyalarini moslashtirish orqali tashkilotlar ichki ish jarayonlarini moslashuvchan va natijaviy qilishlari mumkin. Agile metodologiyasi iterativ yondashuv, jamoaviy hamkorlik va tezkor fikr almashishga asoslanadi, bu esa o'zgaruvchan muhitda tez moslashish imkonini beradi. Lean metodologiyasi esa ortiqcha jarayonlarni qisqartirish, resurslardan maksimal darajada samarali foydalanish va mijozga qiymat yetkazishga qaratilgan. Ushbu metodologiyalarni O'zbekiston mehnat madaniyatiga moslashtirish orqali jamoalar o'z-o'zini boshqarish, motivatsiya va natijadorlikni oshirishga erishadi.

Uchinchidan, kadrlar tayyorlash tashkilotning intellektual salohiyatini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda MBA (Master of Business Administration) dasturlarini joriy etish orqali menejerlar strategik fikrlash, moliyaviy tahlil, inson resurslarini boshqarish va xalqaro biznes muhitida samarali harakat qilish ko'nikmalarini egallaydilar. Bundan tashqari, malaka oshirish kurslari, stajirovkalar va mentorlik dasturlari orqali amaliy bilimlar va tajriba almashinuvi yo'lga qo'yiladi. Bu esa tashkilotlarda bilimli, mas'uliyatli va innovatsion fikrlovchi rahbarlar sonini ko'paytiradi.

To'rtinchidan, shaffof boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali tashkilotlar ichki va tashqi manfaatdor tomonlar ishonchini oshiradi. Xalqaro korporativ boshqaruv standartlari, xususan OECD tamoyillari va ISO 37000 kabi boshqaruv kodekslari tashkilotlarda ochiqlik, javobgarlik, ishtirokchilik va natijadorlikni ta'minlaydi. Bu standartlar asosida kuzatuv kengashlari, audit tizimlari, manfaatdor tomonlar bilan muloqot mexanizmlari va risklarni boshqarish tizimlari shakllantiriladi. Korrupsiyaga qarshi kurashda esa ichki nazorat tizimlari, xodimlar uchun etika kodekslari va anonim xabar berish platformalari joriy etilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ko'rib chiqilgan yo'nalishlar O'zbekistonda tashkilot boshqaruvini zamonaviylashtirish, raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Avvalo, inson resurslarini samarali boshqarish va ularning malakasini oshirish tashkilotning uzoq muddatli rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bilan birga, korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish orqali shaffoflik, hisobdorlik va mas'uliyat darajasini oshirish, boshqaruvning samaradorligini ta'minlash mumkin.

Raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish esa boshqaruv jarayonlarini tezkor, aniqlik bilan olib borish, resurslardan oqilona foydalanish hamda zamonaviy axborot tizimlari yordamida qaror qabul qilish sifatini oshirish imkonini beradi. Innovatsion menejmentning joriy etilishi tashkilotlarga yangi g'oyalarni tezkor tatbiq qilish, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, global raqobat sharoitida barqaror faoliyat yuritishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. GPRA Modernization Act of 2010. Public Law 111–352. <https://www.congress.gov/111/plaws/publ352/PLAW-111publ352.pdf>
2. <https://www.performance.gov>
3. Kaplan R. S., & Norton, D. P. The balanced scorecard: Translating strategy into action. Harvard Business Press. 1996. – P322
4. United States Office of Personnel Management. A Handbook for Measuring Employee Performance: OPM.GOV, 2017. P93
5. Deming, W. E. Out of the Crisis. MIT Press. Reprinting. 2018. – P448
6. Sallis, E. Total Quality Management in Education, Kogan Page Publishers, 3rd edition, 2002. – pp.4-139.
7. Top 15 Benefits of Total Quality Management [TQM] for 2025. <https://www.simplilearn.com/benefits-of-total-quality-management-article>
8. Crosby, P. B. Quality is Free: The Art of Making Quality Certain. Mentor. 1980. – P270
9. <https://www.invensislearning.com/blog/zero-defects-approach-in-quality-management/>
10. <https://www.frontiersin.org/research-topics/27428/zero-defect-manufacturing-in-the-era-of-industry-40-for-achieving-sustainable-and-resilient-manufacturing/magazine>
11. Pande, P. S., Neuman, R. P., Cavanagh, R. R. The Six Sigma Way: How GE, Motorola, and Other Top Companies are Honing Their Performance. McGraw-Hill. 2000. – P448
12. Harry, M., & Schroeder, R. Six Sigma: The Breakthrough Management Strategy Revolutionizing the World's Top Corporations. Doubleday. 2000. – P300
13. Bouckaert, G., Kuhlmann, S. Public Sector Reforms in Continental Europe: New Public Management and Beyond. Edward Elgar Publishing. 2016. – P400
14. Kuhlmann, S., Proeller, I.. Modernisierung des öffentlichen Sektors: Management und Steuerung öffentlicher Aufgaben im Wandel (2. Aufl.). Springer VS. 2021. – P420
15. Kuhlmann, S., Galli, D., & Reiter, R. (2021). Reorganisation and resilience in local governments during the COVID-19 pandemic: Evidence from Germany. European Policy Analysis, 7(2), 350–364.
16. Jun Yamaguchi. New Direction for Research of Management for Sustaining Kaizen Activities. Annual Conference of Japan Society for Management Information. 2021. https://doi.org/10.11497/jasmin.202111.0_75

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100